

Paxtachi tumanida 2024 yilning 3 choragida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlar uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” orqali amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

Hammanizga ma‘lumki 2024-yil 1-yanvardan e‘tiboran respublikaning barcha tuman (shahar)larida tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining **5 foizini jamoatchilik fikri asosida** shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi belgilangan. Shunga asosan **“Tashabbusli byudjet” jarayonining 1-mavsumida** tuman byudjetining parametrada ko‘zda tutilgan 5 foiz mablag‘larning 50 foiz miqdorida, ya‘ni 9 mlrd 976.8 mln so‘m, yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larining 30 foiz miqdoridagi qismi 1 mlrd 619.6 mln so‘m, mening yo‘lim loyihasi doirasida rejalashtirilgan mablag‘lardan 4 mlrd so‘m, jami bo‘lib **12 mlrd 056 mln 525 ming so‘m** mablag‘lar jamg‘armaga yo‘naltirildi. yil boshiga jamg‘armada 440 mln 125 ming so‘m qoldiq mavjud bo‘lib, **jami mablag‘lar 16 mlrd 036 mln 525 ming so‘mni tashkil etdi.**

Natijada tashabbusli byudjet jarayonining 1-mavsumida **jami mablag‘lar 16 mlrd 036 mln 525 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 12 ta** loyihalar g‘olib deb topilgan. Fuqarolar tomonidan o‘z xududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha Openbudget.uz axborot portali orqali 1-bosqichda **jami 193 ta** loyihalar ilgari surilib, **116 ta** loyihalar ishchi komissiyasi tomonidan saralab olingan. Ovoz berish yakunlariga ko‘ra **12 ta** takliflar g‘olib deb topildi.

Jumladan:

Maktab ta‘limi tizimi bo‘yicha 1 ta taklif uchun **1 mlrd 360 mln so‘m**, sog‘liqni saqlash sohasida 1 ta taklif uchun **1 mlrd 360 mln so‘m**, Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta‘mirlash bilan bog‘liq tadbirlar sohasida 6 ta taklif uchun **8 mlrd 090 mln so‘m**, Boshqa ta‘lim muassasalarini ta‘mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari sohasida 1 ta taklif uchun **1 mlrd so‘m**, Qonun xujjatlari bilan belgilangan mezonlarga muvofiq boshqa tadbirlar sohasida 1 ta taklif uchun **1 mlrd 220 mln so‘m**, Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish yoki ta‘mirlash (transformator, simyog‘och o‘rnatish) tadbirlari sohasida 2 ta taklif uchun **2 mlrd 360 mln so‘m**, jami bo‘lib **12 ta** takliflar uchun **15 mlrd 390 mln so‘m** mablag‘lar g‘olib deb topilgan takliflar uchun alohida hisob varaqlar ochilib, moliyalashtirib berilgan.

Bugungi kun holatiga 1 ta umumta‘lim maktablarini sport zal qurish ishlari g‘olib deb topilgan loyihalarda pudrachi bilan tuzilgan shartnomalarga asosan qurilish ishlari davom etmoqda. 1 ta tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxonasi xududuni zamonaviy lanshaft dizayn loyihasi asosida obodonlashtirish va kukalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish ishlari pudrachi bilan tuzilgan shartnomaga asosan qurilish ishlari davom etmoqda, 6 ta yo‘l qurulishi bilan bog‘liq loyihalarda 5 tasida qurilish ishlari yakunlanib foydalanishga topshirilgan 1 tasida qurilish ishlari davom etmoqda, 2 ta Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish yoki ta‘mirlash (transformator, simyog‘och o‘rnatish) tadbirlari bo‘yicha 1 tasida qurilish ishlari davom etmoqda 1 tasi qurivchi aniqlash uchun shaffof tendirga quyilgan, 2 ta jixozlash bilan bog‘liq loyixalarda 1 tasi jixozlar tuliq keltirildi 1 tasida jixozlar yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomaga asosida jixozlar keltirish ishlari davom etmoqda.

/Paxtachi tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i



S.Boyqabilov